

**SAID AHMADNING O'ZBEK ADABIYOTIDAGI O'RNI**

*Toshkent kimyo xalqaro universitet Namangan filiali o'zbek tili yo'nalishi*

*2 kurs talabasi Yuldashvoyeva Marjona Abdulhamid qizi*

**Anotatsiya:** Mazku maqolada o'zbek adabiyotining XX asrdagi yirik namoyandalaridan biri — Said Ahmadning ijodiy merosi va uning milliy adabiyotimizdagi o'rni tahlil qilinadi. Adibning "Ufq", "Jimjitlik", "Qorako'z Majnun" roman va qissalari, shuningdek "Kelinlar qo'zg'oloni" dramasi asosida uning badiiy uslubi, xalqona tili, ijtimoiy va ruhiy muammolarga yondashuvi yoritilgan. Maqolada Said Ahmad asarlarining adabiy xususiyatlari, ularning epik kenglik, psixologik tahlil, lirizm va satira vositasida yaratilgani ko'rsatilib, yozuvchining o'zbek adabiyotida tutgan o'rni chuqur tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** Said Ahmad, o'zbek adabiyoti, nasr, drama, "Ufq", "Jimjitlik", "Qorako'z Majnun", "Kelinlar qo'zg'oloni", xalqona til, psixologik tahlil, lirizm, satira, milliy qadryat.

**Annotation:** This article analyzes the creative legacy of Said Ahmad, one of the prominent figures of 20th-century Uzbek literature, and his role in the development of national literature. Based on his novels and stories such as "Ufq", "Jimjitlik", "Qorako'z Majnun", as well as the play "Kelinlar qo'zg'oloni", the author's artistic style, colloquial language, and his approach to social and psychological issues are explored. The article highlights the literary features of Said Ahmad's works, showing how they were created through epic breadth, psychological analysis, lyricism, and satire, and provides an in-depth study of his place in Uzbek literature.

**Keywords::** Said Ahmad, Uzbek literature, prose, drama, Ufq, Jimjitlik, Qorako'z Majnun, Kelinlar qo'zg'oloni, colloquial language, psychological analysis, lyricism, satire, national values.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается творческое наследие

*Саида Ахмада — одного из крупнейших представителей узбекской литературы XX века, а также его роль в развитии национальной словесности. На примере его романов и повестей «Уфқ», «Жимжитлик», «Қорақўз Мажнун», а также драмы «Келинлар қўзғолони» освещаются художественный стиль писателя, его народный язык, подход к социальным и психологическим проблемам. В статье показаны литературные особенности произведений Саида Ахмада, созданных с помощью эпической широты, психологического анализа, лиризма и сатиры, а также глубоко анализируется его место в узбекской литературе.*

**Ключевые слова:** Саид Ахмад, узбекская литература, проза, драма, Уфқ, Жимжитлик, Қорақўз Мажнун, Келинлар қўзғолони, народный язык, психологический анализ, лиризм, сатира, национальные ценности.

XX asr o'zbek adabiyoti o'zining boy ijodiy merosi bilan ajralib turadi. Shu davrning yorqin vakillaridan biri- Said Ahmad hisoblanib, u nasr drama va publitsistika sohalarida ijod qilib, o'zbek adabiyotining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan adibdir. Uning ijodi quyidagi jihatlar bilan ajralib turadi: insoniy tuyg'ular va ruhiy iztiroblarini chuqur tasvirlash, yumor, hazil, mutoyiba, psixologik tahlil, epik kenglikni uyg'unlash va kitobxon qalbini tarbiyaviy ruhda shakllantirishlardan iborat.

Said Ahmad 1920-yil 11-mayda tavallud topgan. Yoshligidan kitoblar dunyosiga mehr qo'yib, maktab yillarida she'riyat va hikoya san'ati bilan shug'ullangan.

Serqirra ijodkorning ilk hikoyalari: "Qishloqda", "Taqdir", "Er yigit" - xalq hayoti va insoniy qadryatlarni aks ettiradi. Uning asosiy maqsadi hayotni haqqoniy ko'rsatish va kitobxonni tarbiyaviy ruhda shakllantirish edi. Yoshligida o'z tajribasini xalq hayotidan olganligi keyinchalik barcha asarlarida aksini topdi. Inson va jamiyat munosabatlarini uning ilk asarlarida asosiy mavzu bo'lib, ijodiy yo'lini hikoya va qissa janrlarida boshlangan, keyin esa roman va dramaga kengaytirgan.

Asarlardagi bosh qahramonlari oddiy dehqonlar ,ishchilar,ziyolilar,ayollar hamda kelin kuyovlar bo'lib ,ularning hayoti va millatning qadryatlari orqali jamiyatning ichki dunyosi ochib berilgan .Shu bilan birga,jamiyatdagi muammolar va o'zgarishlar ham ijodida ko'tarilgan. Asarlarida milliy an'ana va qadryatlar hurmat qilinadi ,insoniy fazilatlar -vijdon,fidoiylilik va halollik -markaziy mavzu bòladi.

Qahramonlar hayotiy va kitobxon uchun yaqin bòlib ,ularni o'z hayotidagi voqealıklar bilan bog'lash imkonini beradi.Ijodkor o'zbek adabiyotida boy ijodiy meros qoldirgan. Uning eng mashhur asarlari orasida "Ufq","Jimjitlik","Qorako'z majnun" va "Kelinlar qo'zg'aloni" alohida e'tiborga ega.

"Ufq" romani - davrning badiiy qiyofasi bo'lib, epik roman sifatida jamiyat hayotini keng qamrovda tasvirlab beradi.Xalqning kelajakka bo'lgan ishonchi va mehnatkashlarning fidoiyligi kòrsatib berilgan.Voqealar oddiy odamlar hayoti orqali berilgan,lekin butun davrning manzarasi ochib berildi.Ushbu asar òzbek nasrida epik kenglik va tarixiy voqealikni uyg'unlashtirishga dalil bòla oladi.Jamiyatdagi yangilanishlar va ijtimoiy muammolar realistik tasvirlangan . Qahramonlar orqali insoniy fazilatlar - jasorat ,fidoiylilik ,halollik kòrsatib berilgan .

"Jimjitlik"-inson qalbini sirli,ichki dunyosini aniq va keng qamrovli tahlil qiluvchi asar hisoblanadi.Asarda inson ruhiyatining murakkab qatlamlari ,ichki sokinlik bilan beqarorlik òrtasidagi ziddiyatlar hayotidagi qarama - qarshililar teranlik bilan tasvirlangan.

Ushbu asar psixalogik tahlil yo'nalishlarini boyitib ,o'zbek nasrida yangi bosqichni yaratishga xizmat qilgan. Muallif ichki monolog va ruhiy iztiroblardan foydalanilgan holda qahramonlarning his tuyg'ularini va ularning ichki dunyosini ochib beradi.Bu buyik asar o'zbek adabiyotida psixalogik nasrning rivojlanishida muhim bosqich sifatida qadrlagan.

"Qorako'z majnun" asari esa ,muhabbat lirizmi bo'lib ,unda insoniylik tuyg'ular - sadoqat mehr va vijdonli sevgi samimiyat bilan tasvirlanadi.Lirizmga boy asar kitobxon qalbida chuqur hayajon uyg'otadi, milliy an'ana va qadryatlar

bilan uyg'unlashib ,muhabbatni ulug'laydi.Psixologik va emotsional chuqurlik qahramonlarning ichki dunyoni ochib beradi .Mazkur asar muhabbat va insoniy qadryatlarni badiig tarzda kuylangan.

Adibning yana bir mashhur asarlaridan biri - "Kelinlar qo'zgaloni" dramasi.Unda o'zbek oilasidagi qadryatlar ,kelin va qaynana munosabatlari hazil mutoyiba orqali yoritib berilgan .Asarda satira va yumor vositasida jamiyatdagi ijtimoiy muammolar ko'tariladi .Bu asar teatr sahnasida ham katta shuhrat qozonga va xalq orasida sevib tamosha qilinadigan dramalardan biri hisoblanadi.

Ushbu asarlarni mavzu jihatdan solishtiradigan bo'lsak,"Ufq" da jamiyat hayoti va davri manzaralari tasvirlansa,"Jimjitlik"da inson ruhatining nozik qatlamlari yoritiladi."Qorako'z majnun" muhabbat lirizimini ifodalaydi ."Kelinlar qo'zgaloni " esa oilaviy qadryatlarni markazga qo'yadi. Shu tariqa har bir asar o'z mazmuni orqali jamiyat ,inson va hayotning turli qirralarini talqin etadi.h

Said Ahmad ijodida xalqona til va sodda samimiy ifoda yetakchi o'rin tutadi.U o'z asarlaridahayotiy voqealrni kitobxon qalbiga yaqinlashtirib,qahramonlarni tabiiy va ishonarli tarzda tasvirlaydi. Ijodkorning tili og'izaki nutqqa yaqin bo'lib xalqning turmish tarzini orzu intilishlarini bevosita aks ettiradi .Ayniqsa,uning yumor satirasiga boy ifodalar kitobxonni bir vaqtning o'zida kuldirib,ham chuqur o'ylashga majbur qiladi . Shu sababli uning asarlari o'qituvchu uchun nafaqat badiiy zavq manbai ,balki hayotiy saboqlarning ham ko'zgusi bo'lib xizmat qiladi .

Said Ahmad XX asr o'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo'lib, o'z ijodi bilan milliy adabiyot taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi. Uning asarlarida xalq hayoti, milliy qadriyatlar, inson ruhiyatining nozik jihatlari va jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq ijtimoiy muammolar badiiy yuksaklikda tasvirlangan. Adib o'zbek nasrini yangi bosqichga olib chiqib, milliy adabiyotimizning mavzu doirasini kengaytirishga va badiiy ifoda imkoniyatlarini boyitishga erishdi. Said Ahmad ijodida epik kenglik, chuqur psixologik tahlil, lirizm va satira o'zaro uyg'unlashgan. Xususan, "Ufq", "Jimjitlik", "Qorako'z Majnun" va "Kelinlar qo'zg'oloni" kabi asarlari badiiy mukammalligi, hayotiy voqealarning samimiy

tasviri hamda milliy-ijtimoiy mazmunining dolzarbligi bilan alohida ajralib turadi. Bu asarlar orqali kitobxon milliy qadriyatlarni, insoniy fazilatlarni va hayot haqiqatlarini chuqurroq anglaydi.

Adibning asarlari faqat badiiy zavq bag'ishlabgina qolmay, balki yosh avlod tarbiyasi uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Ularda insoniylik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi fazilatlar targ'ib qilinadi. Shu jihatdan Said Ahmad ijodi nafaqat adabiyotimiz oltin fondiga, balki xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotiga ham salmoqli hissa qo'shgan. Umuman olganda, Said Ahmadning ijodiy merosi o'zbek adabiyoti tarixida markaziy ahamiyat kasb etadi. U yaratgan asarlar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan bo'lib, kelajak avlod uchun ilmiy, ma'naviy va badiiy meros sifatida xizmat qilmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

Said Ahmad. Ufq. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1974.

Said Ahmad. Jimjitlik. – Toshkent: Sharq, 1980.

Said Ahmad. Qorako'z Majnun. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1976.

Said Ahmad. Kelinlar qo'zg'oloni. – Toshkent: Teatr nashriyoti, 1983.

O'zbek adabiyoti tarixi. 6-jildlik. – Toshkent: Fan, 2010.